

Salohitdinov Mahmud Salohitdinovich



O'zbekiston Fanlar akademiyasining prezidenti (1988-1994-yy.)

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1974-y.), fizika-matematika fanlari doktori

Matematika sohasidagi olim, fan va ta'lim faollaridan biri, jamoat arbobi

1933-yil 23-noyabrda Namangan shahrida tavallud topgan

O'zSSRda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi (1978 y.)

Beruniy nomidagi O'zSSR Davlat mukofoti laureati (1974 y.)

O'rta Osiyo davlat universitetini tamomlagan (O'ODU, 1958-y., hozirgi O'zMU)

Mehnat faoliyati davomida O'ODU assistenti, O'zbekiston Milliy universitetida kafedra mudiri va professor, O'zR FA Matematika institutida kichik va katta ilmiy xodim, bo'lim rahbari, direktor o'rinbosari, direktor, O'zSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti lavozimlarida ishlagan

Hozirgi kunda O'zMU professori lavozimida faoliyatini davom ettirmoqda

250 dan ortiq ilmiy ish, shu jumladan 5 ta monografiya muallifi

7 ta fan doktori va 35 ta fan nomzodini tayyorladi

2003-yilda «Mehnat shuhrati»

2007-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordenlari bilan taqdirlangan.